



O'ZBEKISTON MADANIY MEROS OBYEKTLARI

R.B.Anorboyeva *SamISI talabasi,*

Ilmiy rahbar: A.Sh.Berdimurodov

“O‘zbek” atamasi asrlar davomida shakllanib, ma’lum bir millat, xalq bo‘lib tarkib topdi. Turkiy xalqlar qatoriga kiruvchi millatimiz ko‘p asrlik tarixga ega. Aynan ushbu davrlarda millatimizning, qardosh xalqlarning madaniyati, urchodatlari va an’analari hamnafas shakllanib bordi. Bugungi kunda o‘zbek xalqining madaniyati rang-barangligi hamda serjiloligi bilan boshqa madaniyatlardan ajralib turadi. Madaniyat paydo bo‘lishi hamda shakllanib borib, avlodlardan avlodlarga o‘tib borishida mintaqa, iqlim, joylashgan o‘rnini ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadim alloma-ijodkorlarimizning mehnat faoliyati, ularning o‘y-fikrlari, ijodiy izlanishlari tariximiz zarvaqarlariga bitilgan bo‘lib, bugungi kungacha yetib kelgan madaniy meros obidalarining qiyofasida o‘zining ulug‘vor aksini topgan. Shunday ekan, tariximizdan haqqoniyligini dalolat beruvchi arxeologik yodgorlik, obidalar, masjidu ziyyaratgohlar, madrasayu xonaqohlarni asrab-avaylash, ularning azaliy qiyofasini tiklash, kelajak avlodga bezavol etkazish borasida ko‘p mehnat qilish zarur.

Madaniy meros obyektlarini chuqur o‘rganar ekanmiz, bevosita uning turlari, shakllanish holati hamda tarixi bilan ham tanishib chiqish zarur bo‘ladi. Madaniy meros obyektlari ko‘plab ilmiy izlanishlarga sabab bo‘lgan va yuqori natijalarga erishilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Prezident qaroriga muvofiq madaniy meros obyektlari 2 ta katta guruhga ajratilgan: 1. Moddiy madaniy meros obyektlari; 2. Nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari o‘z o‘rnida yana bir necha toifalarga ajratilgan. Bular: ansambllar, diqqatga sazovor joylar, yodgorliklardir.

Ansambllar — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko‘zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiylig yoki aloqadorlikka ega bo‘lgan, ijtimoiy, ma’muriy, diniy, ilmiy, o‘quv-ta’lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, me’morchilik asarlari bilan bog‘liqlikda alohida yoki o‘zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlarga aytildi.

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy



manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

Yodgorliklar — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrular, monumental san’at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismillardagi yozuvlar, adabiyot va san’at asarlari, arxiv, qo‘lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo‘lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o‘yib solingen tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar hisoblanadi.

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 8210 ta moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk ob’ekti davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, shundan 4788 tasi arxeologiya, 2265 tasi arxitektura ob’ektlari, 625 tasi monumental san’at asarlari, 530 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi.

Buxoro, Samarcand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga, “Boysun madaniy muhiti”, “Shashmaqom musiqasi”, “Navro‘z”, “Katta ashula”, “Askiya”, “Palov madaniyati va an’analari” nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga, Usmon Qur’oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro‘yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e’tirof etilganiga yorqin misol bo‘la oladi.



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni
2. Iqboljon o‘g‘li, A. R., & Omonjon, U. (2023). YUNESKO RO ‘YXATIGA KIRITILGAN BUTUNJAHON MADANIY OBYEKLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 303-305.
3. Berdimurodov, A. S. (2024). Features of Pricing in Tourism. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 2(1), 260-263.
4. Jaxongirovna, U. G. (2024). NOYOB MADANIY MEROS OBYEKLARI TARIXDAN SO ‘ZLOVCHI MASKAN SIFATIDA. PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS, 2(1), 58-62.
5. <https://madaniymeros.uz/object>
6. https://www.researchgate.net/publication/365637293_Ozbekiston_madaniy_meros_obyektlari_xalqaro_e'tirofda